

IJTIMOY HIMOYA YAGONA REESTRIGA KIRITILGAN AYRIM SHAXSLARGA XORIJGA CHIQISH PASPORTI BERGANLIK UCHUN DAVLAT BOJI UNDIRILMAYDI



Manba: O'RQ-759-son, 14.03.2022-y.

[@huquqiyaxborot](#)



Biometrik pasport o'rniga ID-kartalari joriy etilayotganligi sababli ayrim Kodekslar va qonunlarga **ID-karta tushunchasi** kiritildi

ID-kartalarni, xorijga chiqish biometrik pasportini yo'qotganlik, ularni yaroqsiz holga keltirganlik uchun javobgarlik belgilandi



Oila kodeksida bolalarning tug'ilishini qayd etish ota-onasining doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyidan qat'i nazar **fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 1 oy ichida amalga oshirilishi** belgilandi

Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga **nikoh qayd etilganligi to'g'risida belgi qo'yilishiga oid norma chiqarib tashlandi**



Yer davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda fuqarolarga uning o'rniga berilayotgan uy-joy avvalgi uy-joyidan qimmatroq bo'lsa, farq qilgan qiymat fuqarolar tomonidan qaytarib berilmaydi

Ilgari 5 yilda qaytarilishi lozim edi

Ijtimoiy himoya yagona reestriga kiritilgan shaxsga, shuningdek unga hamrohlik qiluvchi shaxsga xorijiy davlatda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatilganda yoki jarrohlik amaliyoti o'tkazilganda xorijga chiqish uchun biometrik pasportini berganlik uchun **davlat boji undirilmaydi**



ID-karta berganlik uchun **BHMning 89 foizi miqdorida** boj undiriladi, xorijga chiqish uchun biometrik pasportni berganlik uchun esa **BHMning 1 baravari miqdorida** undiriladi (ilgari BHMning 1,2 baravari edi).